

O'QITUVCHILIK KASBINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Qo'shmatova Dilfuza Xasanovna

Farg'ona viloyati Beshariq tumani

12-umumiy o'rta ta'lim maktab O'IBDO'

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'qituvchi kasbining zamonaviy jamiyatdagi o'rni, ta'lim islohotlari sharoitida pedagog zimmasiga yuklanayotgan mas'uliyat hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta'lim sohasiga qaratilayotgan e'tibor masalalari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'limda o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, ma'naviy-axloqiy fazilatlari va innovatsion faoliyati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, ta'lim, tarbiya, pedagog, ta'lim islohotlari, jamiyat.

Аннотация. В статье рассматривается значение профессии учителя в современном обществе, роль педагога в условиях реформирования системы образования, а также внимание, уделяемое сфере образования Президентом Республики Узбекистан Шавкатом Мирзиёевым. Проанализированы профессиональная компетентность и духовно-нравственные качества современного учителя.

Ключевые слова: учитель, образование, воспитание, педагог, реформы образования.

Annotation. This article examines the importance of the teaching profession in modern society, the role of teachers in the context of educational reforms, and the attention paid to education by the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev. The professional competence and moral qualities of modern teachers are analyzed.

Key words: teacher, education, upbringing, pedagogue, educational reforms.

Kirish.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod

tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Ustoz! Shu birgina soʻz zamirida olam-olam maʼno va hurmat mujassam. Oʻqituvchi -sofdil, kamtarin, maʼnaviy boy, axloqan pok insondir. Ularning poyiga guldastalar sochsak, doimo hurmatlarini ado etib, ardoqlasak arziydi. Chunki ustozlar butun kuchlarini, aql-idroklarini, bilim va zehnlarni, qalb qoʻriyu sehrlarini shogirdlariga baxshida etgan zahmatkashlardir. Ular bizlarga oq-qorani, yaxshiyu yomonni tanitib, qoʻllarimizga ilk bor qalam tutqazib, “Ota”, “Ona”, “Vatan”, “Ezgulik”, “Baxt” kabi soʻzlarni yozishga oʻrgatgan buyuk zotlardir. Donolarning aytishicha, elni maʼrifat asraydi. U elni taraqqiy ettirib, ezgu niyati, orzu-umidiga yetkazadi.[1.43].

Bugungi globallashuv sharoitida taʼlim jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Taʼlim tizimining samaradorligi esa, avvalo, oʻqituvchi shaxsiga bogʻliq. Oʻqituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yosh avlodning dunyoqarashi, maʼnaviyati va ijtimoiy faolligini shakllantiruvchi yetakchi shaxsdir [2.61].

Y.A.Komenskiy oʻqituvchidan bolalarga etiborli boʻlishni, doʻstona va mehribon boʻlishni, oʻzining qattiq muomalasi bilan bolalarni oʻzidan uzoqlashtirmaslikni, balki ularni otalik feʼl-atvori, odob-axloqi va soʻzlari bilan jalb qilishni talab qiladi. Bolalarni oson va quvonch bilan oʻrgatish kerak, “ilm ichimligi kaltaksiz, baqiriqsiz, zoʻravonliksiz, jirkanchsiz, bir soʻz bilan aytganda, doʻstona va yoqimli yutib yuboriladi”. Oʻqituvchiga qoʻyiladigan muhim talab-pedagogik qobiliyatlarning mavjudligi oʻquvchilar bilan ishlashga moyillik, bolalarga muhabbat va ular bilan muloqot qilishdan zavqlanishda ifodalangan shaxs sifati. Koʻpincha pedagogik qobiliyatlar aniq harakatlarni bajarish qobiliyatiga torayib ketadi chiroyli gapirish, qoʻshiq aytish, chizish, bolalarni tartibga solish va hokazo [3.57]. Ulugʻ shoirimiz Alisher Navoiy ham oʻqituvchi mehnatini holisona baholab:

“Agar shogird Podsholikka erishsa ham, unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi”,

“Haq yoʻlida kim senga bir harf oʻrgatmish ranj ila, Aylamak emas oson emas oning haqqin yuz ganj ila”, –kabi satrlar bitgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'lim sohasining ustuvorligini ta'kidlab, shunday deydi: "Agar ta'lim va tarbiyani rivojlantirmasak, jamiyatda hech qaysi sohada yuksalishga erisha olmaymiz" [4.23].

Jamiyatning intellektual salohiyati, ilmiy va madaniy rivoji bevosita o'qituvchi mehnati bilan chambarchas bog'liq. Chunki barcha soha mutaxassislari dastlab ustoz tarbiyasini oladi. Shu bois o'qituvchi kasbi jamiyatda eng mas'uliyatli va sharafliliklardan biri hisoblanadi. O'qituvchi qancha bilimli va fidoyi bo'lsa, jamiyat shuncha kuchli bo'ladi.

Zamonaviy ta'limda o'qituvchiga juda ko'plab talablar qo'yilgan. Bugungi kunda ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar jadal joriy etilmoqda. Bu esa o'qituvchidan yuqori kasbiy kompetensiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashni talab etadi. Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmashligi mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga solish, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. Ma'lumki pedagogik faoliyat— kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Pedagogik mahoratni egallashda pedagogika va psixologiyaga doir bilimlar katta rol o'ynaydi. Ilmiy psixologik-pedagogik bilimlar sistemasining mavjudligi o'qituvchilarga faqat o'z sinfini hamda ayrim o'qituvchilarni o'rganishi va ularni to'g'ri xarakterini tuzatishgina emas balki bolalar kollektivi va uning har a'zosining rivojlanishi istiqbollari ham belgilash imkonini beradi. O'qituvchi tarbiyachining amaliy faoliyatini bu ko'plab pedagogik vazifalarini beto'xtov xal qilishdir. O'zining kasbiga doir bilimlar zapasidan ijodiy foydalangan o'qituvchigina ularni muvaffaqiyatli xal etish mumkin. Ammo pedagogika va psixologiyaga doir bilimlar aniq tarbiyaviy jarayonlarda yuzaga keladigan barcha vazifalarga tayyor javoblar bera olmaydi[5.60].

Zamonaviy o'qituvchi o'quvchilarda: mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil, ijodkorlik, mas'uliyat va ijtimoiy faollikni shakllantirishi lozim. Pedagogik mahorati o'qituvchida pedagogik odobi nazokatning mavjudligi bilan xarakterlanadi. O'qituvchining umumiy ma'naviy tarbiyalanganligi pedagogik odobning asosidir. Pedagogik odobi — bu o'quvchilarga nisbatan pedagogik etikani o'ziga xos amalga oshirilishidir. Pedagogik

odobi bu o'qituvchining yuksak insoniylik, insonga mehribonlik o'zini tuta bilish, sabr bardosh va har qanday vaziyatlardan ham xayrixohlik munosabatlarini o'rnatish bilish kabilarni qamrab oluvchi ma'naviy xulq-atvoridir. Pedagoglik odobiga ega bo'lgan o'qituvchi va o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblari bilan bo'ladigan o'z munosabatlarini ustalik bilan boshqaradi.

Ta'lim islohotlarida o'qituvchining roli juda muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarida o'qituvchi asosiy tayanch kuch sifatida e'tirof etilmoqda. Prezident Sh. Mirziyoyev bu borada shunday ta'kidlaydi: "Yangi O'zbekistonni barpo etishda eng muhim tayanchimiz – zamonaviy bilim va tafakkurga ega bo'lgan ustozlardir" [6.134].

O'qituvchining ijtimoiy maqomini oshirish, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining takomillashuvi ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi kasbi bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining strategik omili hisoblanadi. Yosh avlodni barkamol, bilimli va vatanparvar etib tarbiyalash bevosita o'qituvchi faoliyatiga bog'liq. Sh. Mirziyoyev tomonidan bildirilgan fikrlar ham pedagog shaxsining jamiyatdagi o'rni naqadar yuksak ekanini tasdiqlaydi. Shu bois o'qituvchi kasbini e'zozlash va qo'llab-quvvatlash dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Keldiyorova, G. S., Qurbonova, N. N., Fatxullaxodjaev, M. Z., & Rixsiyeva, L. A. (2022). Didactic Functions and types of Role-Playing Games that Contribute to the Development of Communicative Foreign Language Speech Skills. *Specialusis Ugdyimas*, 1(43), 10577-10582.
2. Saidahmedov N. *Pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent, 2019. – 78–80.
3. Hasanboev J., Hasanboeva O., Homidov H. *Pedagogika tarixi*. – T.: O'qituvchi, 1997.
4. Mirziyoyev Sh.M. *Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz*. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B.23
5. Norboyev, F. (2023). Pedagogik innovatsiyalar tadbqiqiga ta'sir etuvchi omillar. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(9), 55-60.

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 134-bet.